

**OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI YETISHTIRUVCHI QO'SHINLAR
FRONT ORTI TA'MINOTI BO'LINMALARI FAOLIYATINING ISLOHOTI****NIYOZOV SODIQ RAXIMOVICH,***O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari**Akademiyasi Moddiy ta'minot kafedrası**oziq-ovqat ta'minoti sikli katta o'qituvchisi**rezervdagi podpolkovnik, dotsent*

Annotatsiya: Ushbu maqolada qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish va ishlab chiqarish bo'yicha harbiy qismlarning front orti ta'minoti bo'linmalari faoliyatida olib borilayotgan islohotlar, ularning faoliyatini takomillashtirish bo'yicha Mudofaa Vazirligi qo'shinlariga yangi kiritilgan tizimning tahlili bayon etilgan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jalik mahsulotlari, harbiy qismlarning front orti ta'minoti bo'linmalari, bo'sh turgan yerlar, sherikchilik, investitsiya, shartnoma, kafil, buyurtmachi, faoliyat, yerning unumdorligi, agrobiznes va sof foyda.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida oziq-ovqat ta'minotining sifatini va oziq-ovqat mahsulotlarining to'yimlilikini oshirish borasida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, oziq-ovqat ta'minotida outsorsing tizimi joriy qilindi, mavjud ta'minotdagi payoklarga o'zgartirishlar kiritildi, oziq-ovqat xizmatining texnik vositalari takomillashtirildi, qo'shinlardagi front orti ta'minoti bo'linmalarining faoliyati isloh qilindi. Ushbu ishlarning amalga oshirilishi qo'shinlarni o'quv-jangovar va kundalik faoliyatida harbiy xizmatchilarni sifatli va yuqori energetik qiymatga ega bo'lgan ovqatlantirishni tashkillashtirish, ularning sog'ligini, chidamliligini, ishchanligini va yuqori ruhiy holatini ta'minlaydi. Shuning uchun ham hozirgi kunda qo'shinlardagi bor ichki imkoniyatlardan keng va maqsadli foydalanish, oziq-ovqat mahsulotlarining to'yimlilikini oshirish, harbiy xizmatchilarni yangi uzilgan va vitamanga boy oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash, ularni belgilangan payoklardan tashqari qo'shimcha ovqatlanishini tashkillashtirish dolzarb masala hisoblanadi. Bunda qo'shinlardagi qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish va ishlab chiqarish bo'yicha harbiy qismlar front orti ta'minoti bo'linmalari (keyinchalik FOTB) ning o'rni juda katta.

Front orti ta'minoti bo'linmalari O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy qismlarini rejaviy ta'minotiga qishloq xo'jalik, shu jumladan, chorvachilik, baliqchilik, parrandachilik hamda asalarichilik (keyinchalik qishloq xo'jalik) mahsulotlarini yetishtirish va topshirish uchun, shaxsiy tarkib ovqatlanishi yaxshilash, bayram kunlari, o'quv mashqlarini, manyovrlarni va boshqa tadbirlarni o'tkazish vaqtlarida qo'shimcha oziq-ovqat bilan ta'minlash maqsadida tashkil etilgan [1].

FOTB ning faoliyatiga yangi tizimni kiritishdan oldin uning faoliyatidagi ishlarni bajarishga harbiy xizmatchilar jalb qilinardi yoki ishlarni bajarish uchun pudrat shartnomasi tuzilib 1 yil muddatga pudratchiga berilar edi. Hozirgi kunda sheriklik asosida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bo'yicha ishlarni bajarish to'g'risidagi shartnomalar uzoq muddatga, **kamida 5 yilga** tuziladigan bo'ldi. Bu bilan yerni egasiga topshirilganligi bois shaxsiy tarkibni jangovar tayyorgarlikka xos bo'lmagan vazifalardan ozod qilib, harbiy xizmatchilarning butun kuch-g'ayratini o'z professional malakasini oshirishga qaratish imkonini berdi. Shartnomaning uzoq muddatga tuzilishi esa yer-suv munosabatlarini takomillashtirish, yerdan, suvdan va boshqa resurslardan maqsadli foydalanishni ta'minlaydi.

Oldinlari yer pudrat shartnomasi asosida pudratchiga bir yil muddatga berilganligi bois, pudratchida yerning unumdorligini oshirish va to'g'ri foydalanish bo'yicha mas'uliyat yo'q edi. Chunki shartnomaning muddati tugagandan so'ng ushbu pudratchi bilan shartnoma tuzilmasligi ham mumkin edi. Shartnomaning uzoq muddatga tuzilishi yerdan foydalanuvchilarning tuproq unumdorligini oshirishga bo'lgan qiziqishini oshirdi.

Sherikchilik deganda shaxsiy investitsiyalarni jalb qilgan holda buyurtmachi, sherik va kafilning aniq muddatga yuridik rasmiylashtirilgan sheriklik asosida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bo'yicha ishlarni bajarish sohasidagi o'zaro samarali hamkorligi tushuniladi. Bunda **buyurtmachi** - harbiy qism va muassasalar, **sharik** - tadbirkorlik sub'ekti hisoblangan yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor, **kafil** - harbiy okruglar etib belgilandi [2].

Investitsiya kiritish orqali FOTB da va harbiy qismda bo'sh turgan yerlardan unumli foydalanish, oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish hajmlarini ko'paytirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan nafaqat qo'shinlardagi harbiy xizmatchilarni, balki bozorni sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash, yurtimizda qo'shimcha ish o'rinlarini yaratilish imkoniyatini berdi.

Dastlab olingan hosil ikki qismga taqsimlanib, uning yarmi pudratchiga, qolgan qismi harbiy qismga berilar edi. Bunda sabzavotchilik uchun sarflanadigan barcha sarflar pudratchi tomonidan amalga oshirilardi edi. Shu bois pudratchi shartnoma tuzilgan yili ko'proq xosil olishga qaratar edi. Yerning unumdorligini oshirishga qaratilgan choralarni ko'rmas edi.

Hozirgi kunda esa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishdan tushgan sof foyda uch qismga taqsimlanib, uning bir qismi buyurtmachiga, yana bir qismi mahsulot yetishtirish va ishlarni bajarish uchun ajratilgan hududlarni rivojlantirishga, qolgan bir qismi tadbirkorga beriladigan bo'ldi. Bu kelgusida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini nafaqat yetishtirish, balki ularni qayta ishlash, qadoqlash, saqlash va transportirovka qilish, hamda tayyor mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydi. Ya'ni uni egasiga yetkazishgacha bo'lgan agrobiznesning yaxlit zanjirini o'z ichiga

qamrab olgan klaster modelini yaratish imkoniyatini beradi. Bu esa harbiy xizmatchilarni butun yil bo‘yi meva va sabzavotlar bilan ta’minlashning asosiy mezonini hisoblanadi.

Yana shuni ta’kidlash joizki, tushgan sof foydaning 1/3 qismi ishlarni bajarish uchun ajratilgan hududlarni rivojlantirishga sarflanishi, foydalanilayotgan tuproqning sifatini yaxshilash hamda uning unumdorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tarixga nazar soladigan bo‘lsak ota-bobolarimiz bir qarich yerdan ham unumli foydalanishgan. Suvsiz, qaqrab yotgan yerlarga suv chiqarib, bog‘-rog‘lar yaratishga alohida e’tibor qaratishgan [3].

Ushbu tizimda sherikni tanlov asosida tanlab olish belgilangan. Tanlovda tadbirkor (sharik) tomonidan innovatsion va resurstejamkor texnologiyalarni qo‘llay olishlik darajasi ham nazarda tutilgan.

Xozirgi kunda innovatsion va resurstejamkor texnologiyalar ko‘plab davlatlarning korxonalari tomonidan qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirishda qo‘llanib kelinmoqda. Misol uchun Isroildagi “Tal-Ya” korxonasi tomonidan ishlab chiqilgan suvni tejash moslamasini aytib o‘tish mumkin (1-rasm) [3].



1-rasm. Suvni tejash moslamasi.

Ushbu konteyner havodagi namlikni yig‘adi va 50% gacha suvni tejaydi. Bunday innovatsion va resurstejamkor texnologiyalarni qo‘llash ko‘plab harbiy qismlarda foydalanilmayotgan suvsiz yerlardan maqsadli foydalanishni ta’minlaydi.

Yuqorida keltirilgan qo‘shinlardagi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish va ishlab chiqarish bo‘yicha harbiy qismlar FOTB faoliyatiga kiritilgan yangi tizimni tahlilidan kelib chiqib quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tizimida FOTB lari faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda;

FOTB ning faoliyati kiritilgan yangi tizim mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohatlarning talablariga to'liq javob beradi;

ushbu tizim harbiy qism va muassasalarga biriktirilgan yer maydonlaridan samarali va unumli foydalanishni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 8 sentabrdagi 505-sonli qarori "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tarkibiga kiradigan vazirlik va idoralarda ovqatlanishni tashkil etish bo'yicha autsorsing xizmatlarini ko'rsatish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risida.

2. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyaelar vazirligi, Milliy gvardiyasi, Davlat xavfsizlik xizmati, Prezident davlat xavfsizlik xizmati, Elektron texnologiyalarni rivojlantirish markazining 2021 yil 5 maydagi 23/24kk/15/16/10/2/25-sonli qarori "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining oziq-ovqat ta'mini tashkillashtirish" to'g'risida.

3. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 2019 yil 3 maydagi 410 sonli buyrug'i "O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tizimida sheriklik asosida qishloq xo'jaligi, shu jumladan, chorvachilik, baliqchilik, parrandachilik hamda asalarichilik mahsulotlarini yetishtirish bo'yicha ishlarni bajarish" to'g'risida.

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 3 dekabrdagi 966-sonli qarori "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining oziq-ovqat ta'minotini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risida.

Internet ma'lumotlari:

<http://cyclowiki.org/wiki/Tal-Ya>;

<https://regulation.gov.uz/uz/document/3399>;

<http://sapsan-logistics.ru/chto-takoe-proizvodstvennyy-klaster>.